

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING UMUMIY  
PROFILAKTIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

*Nazarov Ilxom Alimovich*

*malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar  
kafedrasi katta o'kituvchisi podpolkovnik*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaning axamiyati shundaki, Profilaktika inspektorining umumiyl profilkaktik faoliyati qonun va qonun osti hujjatlari asosida fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishni tashkil etish va huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergen sharoitlarni aniqlash ushbu soxada yuzaga kelayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar ko'rsatilgan

**Kalit so'zlar:** huquqbuzarlik, jabrlangan shaxs, g'ayriijtimoiy xulq-atvor, profilaktika, jamoatchilik nazorati, migratsiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi PF-209-sod Farmoniga asosan profilaktika (katta) inspektori mahalladahuquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizmuhitni ta'minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashishga mas'ul etib belgilandi.

Profilaktika inspektorining umumiyl profilkaktik faoliyati qonun va qonun osti hujjatlari asosida fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan holda amalga oshiriladi. Ma'muriy hududlarda aholi haqidagi demografik ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni toifalarga ajratishni tabaqlash bilan emas, balki ular bilan amalga oshirilishi rejalashtirilish lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilash orqali ta'minlanadi.

Huquqbuzarliklarning umumiyl profilkaktik faoliyatini tashkil etish jarayonida muayyan hududlarda salbiy xususiyatga ega bo'lgan hodisa, voqeа va jarayonlarning ko'payishi aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etilishi va amalga oshirilishi talab etadi. Profilaktika inspektorlari ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, davlat organlari va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikda umumiyl profilaktika ishlarini amalga oshirishlari samaradorlikni keltirib chiqaradi.

Xususan, birinchidan bu jarayonda ishtirok etuvchi sub'ektlarning bu sohadagi akolatlarining amaldagi qonunlarda qanchalik aniq yelgilanganiga, ikkinchidan, ularning bu yo'nalishdagi faoliyati uchun huquqiy asos qanchalik darajada ishlab chiqilganiga, uchinchidan, ular o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning huquqiy mexanizmi qanday darajadaligiga, to'rtinchidan, ushbu hamkorlikni tashkil etuvchi kadrlarning

tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

profilaktika inspektori uchun:

-*mahalla hududida jamoat tartibini saqlash;*

-*huquqbazarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan manzilli ishlash;*

-*mahalladagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish,*

-*huquqbazarliklarni sodir etish sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish;*

-*qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta‘minlash;*

-*aholini terrorchilik, ekstremistik va boshqa g‘ayriqonuniy buzg‘unchilik hamda axloqsizlik yo‘nalishidagi oqimlar ta’siridan himoya qilish iboratdir.*

Masalan, profilaktika inspektori diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari borasida targ‘ibot-tashviqot ishlarida diniy qo‘mita vakillari bilan hamkorlik qilsalar, bu boradagi tushuntirish ishlari fuqarolarga yetarli darajada yetib boradi, giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlikni oldini olish yuzasidan o‘tkaziladigan davra suhbatlari yoki targ‘ibot-tashviqot ishlarida sog‘liqni saqlash organlari xodimlarining ishtiroki samaraliroq bo‘ladi.

Huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasining ob’ekti - keng jamoatchilikdir va bunda alohida shaxslar tanlab olinmaydi.

Masalan, mahalla aholisi, mehnat jamoalari (*korxona, muassasa, tashkilotlar xodimlari*), voyaga yetmaganlar jamoasi (*maktab, kollej va akademik litseylar*), yoshlar jamoasi va boshqalar. Bunda huquqbazarliklar profilaktikasi barchaga bir xil ravishda yetkazib beriladi va ta’sir doirasi kengroqligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasi asosiy ikkita yo‘nalish:

*Birinchidan*, huquqbazarliklarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergen sharoitlarni aniqlash jarayonida hududdagi yoki ma’lum bir guruhlar o‘rtasidagi muammolar, nizolar va huquqbazarliklarning umumiy ko‘rinishi tahlil etish orqali.

*Ikkinchidan*, huquqbazarliklarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergen sharoitlarni bartaraf etishga bevosita qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, uchrashuv, ma’ruza, targ‘ibot-tashviqot va shu kabi chora-tadbirlar amalgaga oshirish orqali olib boriladi.

Shuningdek, profilaktika inspektorining umumiy profilaktik faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga:

- huquqbazarliklar profilaktikasining hududiy dasturlarini ishlab chiqish yuzasidan tegishli takliflar kiritish;

- huquqbazarliklarning umumiy profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish va o‘tkazish jarayoniga, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari, huquqbazarliklar

profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini, fuqarolarni jalb etish;

- huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasini ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, joylarda ma’ruzalar o‘qish, davra suhbati, uchrashuvlar tashkil etish, aholi gavjum joylarda huquqbazarliklar profilaktikasiga doir plakatlar, e’lonlar joylashtirish, video roliklar namoyish qilish, ogohlikka chaqiruvchi ovozli matnni eshittirish, shuningdek aholi gavjum joylarda hamda piyodalarining faol harakatlanish yo‘nalishlarida patrullik yo‘nalishlarini tashkil etish, ma’muriy hududni profilaktik ko‘zdan kechirish kabi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali tashkil etilishini ta’minlash;

-huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining qabul qilingan yangi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish chora-tadbirlarini amalga oshirish va bu jarayonga huquqni muhofaza qilish organlari, ma’naviy-huquqiy targ‘ibot markazlari, ta’lim muassasalarining vakillarini, shuningdek olimlarni, shoirlarni va deputatlarni jalb etilishini ta’minlash;

-ma’muriy hududda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga yoki alohida turdagи huquqbazarliklarning sodir etilishini taqozo etayotgan sabablarni va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaganda ularni bartaraf etish yuzasidan korxona, muassasa, tashkilot hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga hududiy ichki ishlar organi boshlig‘i orqali, vazirliklar va qo‘mitalarga esa Ichki ishlar vazirligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdimnomada kiritish kiradi.

Bizning nazarimizda, profilaktika inspektori tomonidan huquqbazariklardan jabrlangan shaxslar bilan ishslash faoliyatini tashkil etishninig o‘ziga hos muhim hucusiyati huquqbazarliklarning oldini olishda pivojlangan mamlakatlar tajpibasini o‘zlashtirish bilan bipga yurtimizning milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda milliy qadriyatlapimizga ham alohida ahamiyat berilishi lozimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR::**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T: O‘zbekiston, 2023.;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14-maydagи “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 sentabrdagi PQ-319-sон qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi PF-209-sон Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyuldagи «Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 151-sонli buyrug‘i.